



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
"UZBEK INDUSTRIAL AND CONSTRUCTION BANK" JOIN-STOCK COMMERCIAL BANK
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100000 Shahrissabz ko'chasi, 3-uy
E-mail info@sqb.uz, web-site www.sqb.uz

TARTIB

Yuridik departamentning
Korporativ va ichki hujjatlar
ekspertizasi xizmatida
2026-yil 07.01 da
674-son bilan
RO'YXATGA OLINGAN
(reestr №1)

"O'zsanoatqurilishbank" ATB
Boshqaruvi
2026-yil 07.01 da
5-sonli qaroriga
ILOVA



11-bob. Kredit bitimining dastlabki shartlarini o'zgartirish

1-§. Kredit bitimining summasi, valyutasi, maqsadi, foiz stavkasi va moliyalashtirish manbasini o'zgartirish

89. Kredit bitimining dastlabki shartlariga o'zgartirishlar (restrukturizatsiya) kiritish Bank kredit siyosatida belgilangan shartlar va talablar asosida amalga oshiriladi.

Muammoli aktivlarni moliyaviy sog'lomlashtirish doirasida kredit bitimining dastlabki shartlariga o'zgartirish kiritish masalalari ko'rib chiqilishidan oldin, mijoz bilan ishlash bo'yicha alohida chora-tadbirlar dasturi yoki strategiya ishlab chiqilishi lozim.

90. Kredit bitimi summasiga o'zgartirish kreditning maqsadi, muddati va foiz stavkasi o'zgartirilmagan, shuningdek tomonlarning huquq va majburiyatlariga ta'sir ko'rsatmagan holda, kredit bitimi summasining 10 foizdan oshmagan (shu jumladan 10 foizgacha) miqdorda o'zgarishi holatlarida kredit shartlarining sezilarli o'zgarishi deb hisoblanmaydi hamda yangi kredit bitimini rasmiylashtirmasdan, amaldagi kredit bitimiga qo'shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi.

Kredit bitimi summasining 10 foizdan oshgan miqdorda o'zgartirilishi kredit shartlarining sezilarli o'zgarishi deb hisoblanadi hamda bunday holatlarda kredit belgilangan tartibda qayta rasmiylashtiriladi, jumladan yangi kredit bitimi tuziladi.

Kredit bitimi summasining kamaytirilishi qarzdor murojaatidan kelib chiqib kreditning foydalanilmagan qismini kamaytirish orqali amalga oshiriladi.

91. Kredit valyutasiga o'zgartirish kiritish qarzdor murojaatidan kelib chiqib umumiy tartibda vakolatli organ muhokamasiga kiritiladi.

Bank tomonidan xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar milliy valyutaga o'tkazilganda, ushbu amaliyot amalga oshirilgan kundagi Bankning yuridik shaxslarga xorijiy valyutani sotish (tijorat) kursi qo'llaniladi.

Milliy valyutada ajratilgan kreditlar xorijiy valyutaga o'tkazilganda amaliyot amalga oshirilgan kundagi Bankning xorijiy valyutani sotib olish (tijorat) kursi asos qilib olinadi.

Valyutada ajratilgan kreditlar boshqa turdagi valyutaga o'tkazilganda, mijozlar uchun belgilangan imtiyozli individual tariflar tatbiq etilmaydi.

Kredit valyutasini o'zgarishi munosabati bilan foiz stavkalari amaldagi Bank ichki hujjatlarida belgilangan stavkalardan kelib chiqib, vakolatli organ qaroriga asosan belgilanadi. Agar kredit maqsadli jalb qilingan resurslar hisobiga berilgan bo'lsa, foiz stavkasi ushbu resurslarning shartlari va talablariga muvofiq tarzda aniqlik kiritiladi.

92. Kredit maqsadini o'zgartirishda qarzdor murojaatida keltirilgan sabablarni chuqur o'rganilishi, ya'ni mijoz tomonidan taqdim etilgan biznes reja/TIA ko'rsatkichlari bajarilishi yoki bajarilmaslik sabablari, qarz oluvchining bugungi kundagi olib borayotgan faoliyati holatidan kelib chiqib, kredit maqsadi o'zgarishi o'z-o'zini oqlashi yoki oqlamasligi va boshqa holatlar o'rganilishi lozim.

O'rganishlar davomida kredit maqsadini o'zgartirish uchun etarlicha asos mavjud bo'lmagan (*mijoz bilan ishlovchi menejer o'z xulosasida kredit maqsadini o'zgartirish asoslantirmagan*) taqdirda qarzdor murojaati rad etiladi.

93. Kredit uchun belgilangan foiz stavka o'zgartirilishiga aniq asosli sabablar bo'lgandagina yo'l qo'yiladi. Bundan tashqari, kreditning moliyalashtirish manbasi bo'yicha resurs mablag'lari jalb qilingunga qadar Bank o'z mablag'lari hisobidan Bank ichki hujjatlarida belgilangan stavkalar asosida kredit mablag'lari ajratilishi mumkin.

94. Kredit qarorida moliyalashtirish manbasi aniq ko'rsatilgan hollarda moliyalashtirish manbasini o'zgartirish umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi. Moliyalashtirish manbasi o'zgarishi bilan bir vaqtda kredit foiz stavkalarini belgilanishi Bank ichki hujjatlarida asosida amalga oshiriladi. Bunda tashqi maqsadli resurslarni jalb qilish haqidagi kelishuvlardan kelib chiqqan holda kredit bitimining boshqa dastlabki shartlariga ham o'zgartirish kiritilishi mumkin.

2-§. Investitsion kreditlarda import shartnomasini (shartlarini) o'zgartirish

95. Import shartnomalar (shartlarini) o'zgartirilishi faqatgina investitsion kredit mahsulotlari doirasida amalga oshiriladi.

96. Quyidagilardan kamida bittasi mavjud bo'lsa import shartnomaga o'zgartirish kiritish kollegial organ qarori asosida amalga oshiriladi:

import shartnomani o'zgartirish (*boshqa import shartnomasiga*);

import shartnomasi summasi oshirilganda (*ajratiladigan kredit summasiga ta'sir qilgan hollarda*);

import shartnomasi bo'yicha etkazib beriladigan mahsulot turi o'zgartirilganda (*loyihaning TIA ko'rsatkichlariga ta'sir qilgan hollarda*);

import shartnomasi bo'yicha etkazib beruvchi o'zgartirilganda;

import shartnomasi bo'yicha etkazib beruvchi/ishlab chiqaruvchi huquq va majburiyatlari boshqa shaxslarga o'tkazilganda; Yuqoridagi shartlardan boshqa hollarda import shartnomasi o'zgartirilishida vakolatli organ qarori talab etilmaydi.

Zarur hollarda, import shartnomasiga o'zgartirish kiritilishi natijasida Bankning kredit siyosatiga muvofiq "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUK yoki xalqaro standartlar talablariga muvofiq akkreditatsiya qilingan tashkilot xulosasi talab etilishi mumkin.

Import shartnomasida to'lov shakli va to'lov shartlari Bankning amaldagi kredit siyosatida belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi lozim. Mazkur talablarga zid ravishda o'zgartirilgan shartlar asosida moliyalashtirish amalga oshirilmaydi.

97. Investitsion kredit mahsulotlarida taqdim etilgan dastlabki import shartnomasida keltirilgan asosiy vositalardan farqli ravishda boshqa turdagi asosiy vositalarning ishlab chiqarish quvvati va xususiyati loyihaning biznes reja/TIAsida ko'rsatilgan faoliyati va uning ko'rsatkichlari bajarilishiga ta'siri hamda asosiy vositani o'zgartirish sabablari ushbu Tartibning 14-bobida belgilangan tartibda o'rganilishi lozim.

98. Import shartnomasi almashtirilishida yangi import shartnomasida ko'rsatilgan asosiy shartlarni (*summasi, to'lov turi, etkazib berish va yuklab jo'natish muddatlari va h.k*) dastlabki taqdim etilgan import shartnomaning asosiy shartlari bilan solishtirib o'rganish lozim.

O'rganish davomida yangi import shartnoma shartlari loyiha faoliyati ishga tushishiga va biznes reja/TIA ko'rsatkichlari bajarilishiga ta'sir qilishi yoki qilmasligi o'rganilishi lozim.

Agar, qarzdor tomonidan etarlicha sabab keltirilmagan (*yoki mijoz bilan ishlovchi menejer o'z xulosasida import shartnomasini o'zgartirish asoslantirilmagan*) taqdirda murojaat asoslantirilgan holda rad etiladi.

3-§. Kredit bitimining to'lov muddatini o'zgartirish

99. Quyidagi hollarda kredit bitimining yakuniy to'lov muddatlarini uzaytirish taqiqlanadi: kredit to'lovlari bo'yicha asosiy qarzdorliklari tegishli balansdan tashqari hisobvaraqqa (95413) o'tkazilgan kreditlar;

kredit mablag‘lari maqsadsiz ishlatilgan deb topilgan kreditlar (*kreditni maqsadli ishlatilganlik yuzasidan tekshiruv Kredit monitoringi va nazorati departamentining maqsadli ishlatilganlik to‘g‘risidagi dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi*);

bankka aloqador shaxslarga ajratilgan kreditlar (*davlat dasturlarini moliyalashtirish doirasidagi kredit bitimlari bundan mustasno*);

ishonchli kreditlar;

ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni to‘lash uchun berilgan kreditlar;

byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari hisobidan berilgan kreditlar;

individual kredit shartnomasining yakuniy muddatini bosh kelishuv shartnomasida belgilangan kredit qaytarish muddatidan oshirilishi;

kredit qarorida keltirilgan shartlar (*kredit hisobiga sotib olinadigan ko‘char va ko‘chmas mulklarni garovga qo‘yish, qo‘shimcha kafillik rasmiylashtirish, pul aylanmasiga qo‘yilgan talablar va boshqa shartlar*) asossiz ravishda bajarilmagan hollarda.

Bank va mijoz o‘rtasida kredit mahsulotlarini taqdim etish doirasida rasmiylashtirilgan bosh kelishuvlar muddatlari uzaytirilishi mumkin emas.

100. Kreditning asosiy qarzi va/yoki foiz to‘lovlari amalga oshiriladigan oy doirasida to‘lov sanalari mijozning yozma murojaati asosida Bank tarmog‘i/ Korporativ markaz/O‘rta biznes markazi tomonidan o‘zgartirilishi mumkin. To‘lov sanasini o‘zgartirish bo‘yicha kiritiladigan o‘zgartirishlar soni bir kredit shartnomasi bo‘yicha 2 (ikki) martadan ortiq bo‘lmasligi lozim.

4-§. Kredit ta‘minotini qisman ozod etish yoki ta‘minot tarkibini almashtirish (o‘zgartirish)

101. Ta‘minot tarkibiga o‘zgartirish kiritilishda kredit bo‘yicha dastlabki yoki so‘ngi belgilangan mulkiy va nomulkiy garovlar nisbati o‘zgarماسligi lozim (*Bank kredit siyosati hamda ichki qoidalariga muvofiq kredit qoldig‘ining 125% miqdoridan yuqori bo‘lgan ta‘minotlarni qisman ozod etilishi masalalari vakolatli organ tomonidan ko‘rib chiqilishi mumkin*).

102. Ta‘minot tarkibidan mulkiy garovlarni qisman ozod qilinishida barcha mulkiy garovlar Kredit monitoringi va nazorati departamenti/Bank tarmog‘i/Korporativ markaz/O‘rta biznes markazi mas‘ul xodimlari tomonidan joyiga chiqqan holda o‘rganiladi.

O‘rganish natijalariga asosida monitoring dalolatnomasi rasmiylashtiriladi va ushbu dalolatnoma bank mas‘ul xodimlari, qarzdor va garovga qo‘yuvchi (garov obyekti egasi) tomonidan imzolanadi.

Bunda, bugungi kundagi garov obyekti holati, dastlab kredit ajratilgunga qadar olingan fotosuratlar asosida solishtirilib, garov mulkiga ziyon etkazilgan yoki etkazilmaganligi tekshiriladi.

Kredit ta‘minotini qisman ozod etish masalasi mijozning murojaatida ko‘rsatilgan mol-mulkni ozod etish nuqtai nazaridan emas, balki ta‘minot tarkibida yuqori likvidlikka ega mol-mulkni saqlab qolish tamoyilidan kelib chiqib ko‘rib chiqiladi.

Ta‘minot tarkibini almashtirishda (o‘zgartirishda) almashtirish uchun taqdim etilayotgan mulk garovdan chiqarilayotgan mol-mulkdan yuqoriroq likvidlikka ega bo‘lishi lozim.

103. Ta‘minot tarkibidagi mol-mulklar almashtirishida, garov obyekti o‘rniga taqdim etilayotgan mol-mulklar baholash komissiyasi tomonidan “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida kredit ta‘minoti bilan ishlash tartibi qoidalariga asosan baholanadi.

Korporativ markaz/O‘rta biznes markazi mijozlari uchun kredit ta‘minoti sifatida taqdim etilishi ko‘zda tutilgan ta‘minotlarni o‘rganish va baholash ushbu Markazdagi mas‘ul xodim tomonidan “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida kredit ta‘minoti bilan ishlash tartibi asosida amalga oshiriladi va natijasi yuzasidan bank baholash komissiyasiga xulosa taqdim etiladi.

Kreditning ta‘minoti sifatida garovga olingan obyektlarning qiymatini qayta baholash zaruriyati mavjud holatlarda, mol-mulk narxi oshishi/tushishi asoslari (*qo‘shimcha qurilish qilinganligi va b.*) o‘rganiladi.

104. Ta'minot tarkibini almashtirish (o'zgartirish) bo'yicha yakuniy qaror vakolatli organ tomonidan qabul qilinadi. Bunda vakolatli organ ta'minot tarkibiga kiritilayotgan o'zgartirishlarni tavakkalchilik jihatidan alohida yondashuv asosida qaror qabul qilish huquqiga ega.

105. Kredit bitimi majburiyatlari to'liq bajarilgandan so'ng garovga olingan mulklarni garovdan ozod etish, kredit ta'minotini qisman ozod etish (shu jumladan, garov mulklarini bosqichma-bosqich garovdan chiqarish) yoki ta'minot tarkibini almashtirish (o'zgartirish) masalalari "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida kredit ta'minoti bilan ishlash tartibi qoidalari asosida hal qilinadi.

12-bob. Kredit bitimi qarzdorliklarini boshqa shaxsga o'tkazish

106. Qarzdorning Bank oldidagi majburiyatini boshqa shaxsga o'tkazishiga faqat Bankning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Agar kafil yoki garovga qo'yuvchi yangi qarzdor uchun javob berishga rozi bo'lmasalar, shuningdek sug'urta shartnomasida taqiqlovchi holatlar qayd etilgan bo'lsa qarz boshqa shaxsga o'tkazilishi bilan kafillik yoki uchinchi shaxs tomonidan belgilangan garov yoki sug'urta shartnomasi bekor bo'ladi.

Qarzdorning Bank oldidagi majburiyatini boshqa shaxsga o'tkazilishida yangi qarzdorning moliyaviy holati o'rganilishi, ta'minot o'zgarmagan taqdirda, dastlabki ta'minot egalari amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda roziliklari olinishi lozim.

107. Kredit qarzdorligini boshqa shaxsga o'tkazish bo'yicha kredit yig'majildidagi huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar tegishli Yuridik xizmat xodimi tomonidan belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi va xulosa taqdim etiladi.

108. Yuridik shaxslarning (qarzdor) Bank (kreditor) oldidagi majburiyatlarini boshqa yuridik shaxsga (yangi qarzdor) o'tkazish (*majburiyatni qayta rasmiylashtirish, qarz oluvchining o'zgartirilishi*) quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari asosida qarzdorlarni moliyaviy sog'lomlashtirish maqsadida ularning majburiyatlarini yangi qarzdorga o'tkazilishi;

muammoli aktivlarni moliyaviy sog'lomlashtirish maqsadida qarzdorning Bank oldidagi kredit qarzdorligini (*asosiy qarz va/yoki foiz*) yangi qarzdorga o'tkazish;
qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa holatlar.

109. Qarzdorning bank oldidagi majburiyatlarini yangi qarzdorga o'tkazishning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

kredit muddati – o'tkazilishi ko'zda tutilgan kredit shartnomasining yakuniy muddatigacha;
kredit valyutasi – o'tkazilishi ko'zda tutilgan kredit shartnomasida belgilangan valyutada;
kredit summasi – o'tkazilishi ko'zda tutilgan kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlar qoldig'i (*kredit asosiy qarz va jami foizlar*) yoki majburiyatlarining ma'lum bir qismi (*jami foizlar asosiy qarz qoldig'iga kapitalizatsiya qilinishi mumkin*);

kredit foizi – o'tkazilishi ko'zda tutilgan kredit shartnomasida belgilangan foiz stavkasidan kam bo'lmagan miqdorda;

kreditni (asosiy qarz va foiz) qaytarish davriyligi – o'tkazilishi ko'zda tutilgan kredit shartnomasida belgilangan kredit qaytarish jadvaliga muvofiq;

moliyalashtirish manbasi – tashqi resurslar hisobiga moliyalashtirilgan loyihalar bo'yicha resurslarni jalb qilish bo'yicha kelishuvlarda belgilangan shartlar va talablariga muvofiq;

kredit ta'minoti – amaldagi Bankning kredit siyosati va "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida kredit ta'minoti bilan ishlash tartibi talablariga muvofiq.

Yangi qarzdorning moliyaviy holati va/yoki kreditga layoqatliligidan kelib chiqqan holda kredit mahsulotini taqdim etish yuzasidan qaror qabul qilgan vakolatli organ tomonidan boshqa shartlar ham belgilanishi mumkin.

110. Qarzdorning Bank oldidagi majburiyatini soʻndirishni taʼminlovchi Operatsion faoliyati boʻyicha pul oqimlarini shakllantiradigan aktivlar yangi qarzdorga majburiyatlar bilan bir vaqtda oʻtkaziladi.

111. Qarz oʻtkazish yuzasidan tegishli hisobraqam operatsiyalari “iABS” dasturiy taʼminot orqali qarz oʻtkazish yuzasidan kredit shartnomasiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqidagi kelishuv yoki yangi tahrirdagi kredit shartnomasi, taʼminotga oid shartnomalari (sugʻurta shartnomalari) qayta rasmiylashtirilgandan soʻng amalga oshiriladi.

13-bob. Boshqa tijorat banklarining talab qilish huquqlarini Bankka oʻtkazish

112. Boshqa tijorat banklari (dastlabki kreditor)dan kredit shartnomasi doirasida yuzaga kelgan majburiyat asosida oʻziga tegishli boʻlgan huquq (talab)ni Bankka (yangi kreditor) oʻtkazilishi mumkin.

113. Agar kredit shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan boʻlmasa, dastlabki kreditorning huquqi yangi kreditorga huquq oʻtish paytida mavjud boʻlgan hajmda va shartlar asosida oʻtadi. Xususan, yangi kreditorga majburiyatning bajarilishini taʼminlaydigan huquqlar, shuningdek talab bilan bogʻliq boshqa huquqlar, shu jumladan toʻlanmagan foizlarga boʻlgan huquq ham oʻtadi.

114. Dastlabki kreditorning kredit shartnomasi boʻyicha huquqlarini yangi kreditorga oʻtkazishning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

kredit muddati – dastlabki kreditor bilan tuzilgan kredit shartnomasining yakuniy muddatigacha;

kredit valyutasi – dastlabki kreditor bilan tuzilgan kredit shartnomasida belgilangan valyutada; maksimal kredit summasi – dastlabki kreditor bilan tuzilgan kredit shartnomasi boʻyicha majburiyatlar qoldigʻigacha (*kredit asosiy qarz va jami foizlar*);

kredit foizi – dastlabki kreditor bilan tuzilgan kredit shartnomasida belgilangan foiz stavkasida; kreditni (asosiy qarz va foiz) qaytarish davriyligi – dastlabki kreditor bilan tuzilgan kredit shartnomasida belgilangan kredit qaytarish jadvaliga muvofiq;

moliyalashtirish manbasi – bank oʻz mablagʻlari yoki jalb qilingan mablagʻlar;

kredit taʼminoti – dastlabki kreditor bilan tuzilgan kredit shartnomasi boʻyicha qabul qilingan taʼminotlar.

Dastlabki kreditorning kredit shartnomasi boʻyicha huquqlarini yangi kreditorga oʻtkazish qoidalari Bankning ichki qoidalari belgilangan shartlarga mos kelishi lozim.

Dastlabki kreditorning talab qilish huquqini olishda qarzdorning roziligi asosida vakolatli organ tomonidan yuqoridagi qoidalardan farq qiluvchi boshqa shartlar ham belgilanishi mumkin.

115. Kreditorni talab qilish huquqlarini Bankka oʻtkazilishida mijoz va uning mavjud majburiyatlari umumiy tartibda tahlil qilinadi.

Quyidagi mijozlar boʻyicha kreditorning talab qilish huquqlarini oʻtkazilishi taqiqlanadi:

joriy muddati oʻtgan kredit (asosiy qarz va/yoki foiz) qarzdorlikka ega mijozlar;

tijorat banklarida aktivlarning sifati “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan qarzdorlikka ega mijozlar;

tijorat banklaridagi mavjud kredit qarzdorliklarini undirish yuzasidan sudga qarori chiqarilgan mijozlar;

amaldagi Bankning kredit siyosati talablariga zid boʻlgan mijozlar va/yoki taʼminotlar va/yoki kredit bitimlar.

Boshqa tijorat banklarining talab qilish huquqlarini Bankka oʻtkazilishida mijoz arizalarini koʻrib chiqish tartibi ushbu Tartibning 9-bobida belgilangan ketma-ketlik asosida koʻrib chiqiladi.

14-bob. Kredit bitimining dastlabki shartlarini oʻzgartirish boʻyicha buyurtmanomalarni koʻrib chiqish

116. Bank tizimida kredit bitimining dastlabki shartlarini oʻzgartirish masalalari bilan ishlash jarayonida ishtirok etuvchi tarkibiy boʻlinmalar va vakolatli organlarning vazifa va funksiyalari

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida Kredit qo‘mitasi va Muammoli qarzdorliklar bilan ishlash qo‘mitasi hamda Andarrayterlar guruhi to‘g‘risidagi nizom, mazkur Tartib, tarkibiy bo‘linmalarning nizomlari va Bankning boshqa ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Bank boshqaruvi tomonidan belgilangan limit va vakolat doirasida tegishli tarkibiy bo‘linma tomonidan kredit bitimining dastlabki shartlarini o‘zgartirish masalalari yuzasidan kredit hujjatlari ko‘rib chiqiladi, vakolatli tarkibiy bo‘linma tomonidan xulosa tayyorlanadi va kollegial organ muhokamasiga kiritiladi.

117. Kreditdan maqsadsiz ishlatilganlik holatlari mavjud bo‘lgan mijozlarning kredit bitimi dastlabki shartlari qayta ko‘rib chiqilmaydi.

Bundan quyidagi majburiy restrukturizatsiya hollari mustasno:

sudning qarzdorlikni boshqacha usulda undirish borasidagi Bank huquqlarini cheklovchi qonuniy kuchga kirgan qarorining mavjud bo‘lgan;

vakolatli davlat organlarining qarzdorlikni boshqacha usulda undirish borasidagi Bank huquqlarini cheklovchi qarorlarining mavjud bo‘lgan;

Markaziy bankning qarzdorlikni boshqacha usulda undirish borasidagi Bank huquqlarini cheklovchi qarorining mavjud bo‘lgan. Bunda bu kabi masala bo‘yicha qarorlar Bank boshqaruvi yoki Bank kuzatuv kengashi tomonidan ularning vakolatlari doirasida qabul qilinadi.

118. Mijoz kredit bitimining dastlabki shartlarini qayta ko‘rib chiqishni so‘rab mijoz bilan ishlovchi menejer/agrosanoat kredit menejerga murojaat etadi.

119. Mijoz murojaatidan kelib chiqqan holda mijoz bilan ishlovchi menejer/agrosanoat kredit menejer tomonidan Tartibning 4-ilovasida belgilangan hujjatlar ro‘yxati taqdim etiladi.

Ro‘yxatga muvofiq barcha hujjatlar to‘plami mijozlar tomonidan mijoz bilan ishlovchi menejer/agrosanoat kredit menejerga taqdim etiladi.

120. Mijoz bilan ishlovchi menejer/agrosanoat kredit menejeri tomonidan Tartibning 4-ilovasida belgilangan ro‘yxatga muvofiq mijozlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to‘liqligi o‘rganiladi. O‘rganish natijasiga ko‘ra:

a) hujjatlar to‘liq taqdim etilmagan taqdirda, nomuvofiqliklar haqida mijozga Bank tarmog‘i/Korporativ markaz/O‘rta biznes markazi rahbarining imzosi bilan yozma ravishda xabar berilgan holda buyurtmanoma rad etiladi. Mijozga yuborilgan yozma xabarnomada ko‘rsatilgan kamchiliklar mijoz tomonidan bartaraf etilgandan so‘ng, u belgilangan tartibda kredit buyurtmanomasi bilan qayta murojaat qilish huquqiga ega bo‘ladi;

b) hujjatlar to‘plami to‘liq bo‘lgan taqdirda:

hujjatlar to‘plami to‘liqligi yuzasidan dalolatnoma tuziladi (*mijoz bilan ishlovchi menejer/agrosanoat kredit menejer va Bank tarmog‘i/Korporativ markaz/O‘rta biznes markazi rahbari imzolari bilan tasdiqlanadi*);

kredit buyurtmanomasi (ariza) qabul qilinadi (ro‘yxatdan o‘tkaziladi) va rahbarga ushbu bilan tanishib chiqish uchun kiritiladi;

kredit buyurtmanomasi Bank tarmog‘i/Korporativ markaz/O‘rta biznes markazi rahbari tomonidan tanishib chiqilgandan so‘ng, mijoz bilan ishlovchi menejer/agrosanoat kredit menejerga yo‘naltiriladi;

mijoz bilan ishlovchi menejer/agrosanoat kredit menejeri tomonidan “iABS” dasturiy ta’minotida anketa shakllantiriladi hamda anketaga hujjatlar birlashtiriladi;

dalolatnomaga muvofiq barcha hujjatlar kredit yig‘majildiga tikiladi.

Mijoz bilan ishlovchi menejer/agrosanoat kredit menejeri anketaga kredit hujjatlarini to‘g‘ri va to‘liq birlashtirilishi, shuningdek barcha hujjatlar ketma-ketligiga ko‘ra kredit yig‘majildiga tikilishiga mas’ul hisoblanadi.

121. Buyurtmanoma tahlilini amalga oshirish uchun anketa hamda kredit yig‘majildi mijoz bilan ishlovchi menejer tomonidan:

a) Korporativ markazda (kredit shartini qayta ko'rish menejerining ushbu Tartibda belgilangan amaliyotlari):

kredit bitimining to'lov muddatini o'zgartirish (*shuningdek mazkur masala bilan bir vaqtning o'zida kredit foiz stavkasini, valyutasini, moliyalashtirish manbasini, ta'minot tarkibini almashtirish (o'zgartirish), kredit foizlarini kapitalizatsiya qilish*) va/yoki kredit qarzdorligini yangi qarzdorga o'tkazish masalasi bo'yicha Kredit monitoringi va erta ogohlantiruvchi signallar berish xizmati xodimiga;

boshqa hollarda (*kredit ta'minoti tarkibini, kredit foiz stavkasini, valyutasini, maqsadini o'zgartirish, summasini kamaytirish, investitsion kreditlarda import shartnomani o'zgartirish va b.*) Kredit tahlili xizmati xodimiga;

b) O'rta biznes markazida ushbu Markaz nizomiga asosan kredit bitimining dastlabki shartlarini qayta ko'rib chiqish vazifasi yuklatilgan xizmat xodimiga taqdim qilinadi.

Bank tarmoqlarida kredit shartini qayta ko'rish menejerining ushbu Tartibda belgilangan amaliyotlari mijoz bilan ishlovchi menejer tomonidan amalga oshiriladi. Agrosanoat klasterlari bilan tuzilgan kredit bitimining dastlabki shartlariga o'zgartirish kiritishda esa agrosanoat kredit menejer tomonidan amalga oshiriladi.

122. Kredit shartini qayta ko'rish menejeri (yoki agrosanoat kredit menejer/Bank tarmoqlarida mijoz bilan ishlovchi menejeri) dastlabki o'rganishlarni olib borish maqsadida bevosita loyiha manziliga chiqqan holda ko'zdan kechirish harakatlarini amalga oshiradi. Loyiha manziliga chiqish holati foto-suratlar bilan tasdiqlanishi lozim.

Loyiha manzilida o'tkazilgan o'rganishlar natijalariga ko'ra dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomada loyihaning bugungi kundagi holati, kredit bitimining dastlabki shartlarini qayta ko'rib chiqilishi asoslari batafsil yoritiladi. Ushbu dalolatnoma va foto-suratlar kredit yig'majildiga tikiladi va elektron shakli mijoz anketasiga biriktiriladi.

123. Xorijiy/milliy moliya institutlari yoki boshqa jalb qilingan maqsadli moliyaviy resurslar hisobidan moliyalashtirilgan kredit bitimining qaytarish jadvali, foiz stavkasi, valyutasi, summasi hamda investitsion loyiha doirasidagi import shartnomasiga o'zgartirish kiritilishida kredit shartini qayta ko'rish menejeri (yoki agrosanoat kredit menejer/Bank tarmoqlarida mijoz bilan ishlovchi menejeri) tomonidan anketa Moliya institutlari va investorlar bilan ishlash departamentiga yuboriladi.

124. Moliya institutlari va investorlar bilan ishlash departamenti tomonidan anketa va buyurtmanoma belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi:

a) buyurtmanomada ko'rsatilgan shartlar maqsadli moliyaviy resurslar bo'yicha kreditlash shartlari va talablariga muvofiq bo'lmagan holatlarda, anketa tegishli izohlar bilan kredit shartini qayta ko'rish menejeriga (yoki agrosanoat kredit menejer/Bank tarmoqlarida mijoz bilan ishlovchi menejeriga) qaytariladi.

b) buyurtmanomada ko'rsatilgan shartlar maqsadli moliyaviy resurslar bo'yicha kreditlash shartlari va talablariga muvofiq bo'lgan holatlarda, xulosa tayyorlanadi va tegishli xulosa anketa bilan biriktirilgan holda kredit shartini qayta ko'rish menejeriga (yoki agrosanoat kredit menejer/Bank tarmoqlarida mijoz bilan ishlovchi menejeriga) taqdim etiladi.

125. Kredit bankning o'z mablag'lari yoki jalb qilingan boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan, biroq resurs shartlariga o'zgartirish kiritish imkoniyati mavjud bo'lmagan yoki qisman mavjud bo'lgan hollarda Bank ichki qoidalarida belgilangan stavkalaridan kelib chiqib, kollegial organ qaroriga asosan amalga oshiriladi.

126. Kredit ta'minoti tarkibini almashtirish (o'zgartirish) (kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarilishi bundan mustasno), kreditning yakuniy to'lov muddatini o'zgartirish va majburiyatda shaxslarni o'zgarishi (qarz oluvchi) jarayonida qarz oluvchi (yangi qarz oluvchi), mulkini garovga beruvchi, kafil bo'lgan uchinchi shaxs, sug'urta kompaniyasi, kafillik/kompensatsiya berilgan hollarda Jamg'arma va boshqalar tomonidan taqdim etiladigan huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarni o'rganish maqsadida, kredit shartini qayta ko'rish menejeri (yoki

agrosanoat kredit menejer/Bank tarmoqlarida mijoz bilan ishlovchi menejeri) tomonidan anketa Yuridik xizmat xodimiga yuboriladi.

127. Yuridik xizmat xodimi “iABS” dasturiy ta’minoti orqali anketani qabul qiladi va “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida kredit yig‘majildidagi huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlarni o‘rganish bo‘yicha qoidalarida belgilangan tartibda xulosa tayyorlanadi va tegishli xulosa anketa bilan birlashtirilgan holda kredit shartini qayta ko‘rish menejeriga (yoki agrosanoat kredit menejer/Bank tarmoqlarida mijoz bilan ishlovchi menejeriga) taqdim etiladi.

Huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar yuridik xizmat xodimi tomonidan o‘rganishdan o‘tkazilmasdan hamda xulosa olinmasdan turib tegishli kollegial organ muhokamasiga kiritilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

128. Mijoz tomonidan taqdim etilgan barcha hujjatlarni o‘rganib chiqilgandan so‘ng, kredit shartini qayta ko‘rish menejeri (yoki Bank tarmoqlarida mijoz bilan ishlovchi menejer) tomonidan belgilangan tartibda kreditning dastlabki shartlariga o‘zgartirish kiritish yuzasidan ushbu Tartibning 7- ilovasida keltirilgan shaklda xulosa tayyorlanadi va anketaga birlashtiriladi.

Xulosada kreditning dastlabki shartlariga o‘zgartirish kiritish asoslantirilishi hamda xulosa tegishli rahbar, mas’ul rahbar o‘rinbosari va mas’ul xodim imzolari bilan tasdiqlanishi lozim.

129. Kredit shartini qayta ko‘rish menejeri (yoki agrosanoat kredit menejer/Bank tarmoqlarida mijoz bilan ishlovchi menejeri) anketani vakolatli tarkibiy bo‘linma mas’ul xodimiga yuboradi.

130. Vakolatli tarkibiy bo‘linma mas’ul xodimi anketani qabul qiladi. Kredit bitimining dastlabki shartlariga o‘zgartirish kiritish yuzasidan hujjatlar to‘plami ushbu Tartibning 4-ilovasida belgilangan ro‘yxatga hamda Bank tarmog‘i/Korporativ markaz/O‘rta biznes markazi va tarkibiy bo‘linmalar xulosalari anketaga birlashtirilganligini tekshiradi. Qarzdorning moliyaviy holatini va biznes reja ko‘rsatgichlarini tahlil qiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra anketaga birlashtirilgan hujjatlar asosida asoslantirilgan xulosa tayyorlanadi va anketaga birlashtiriladi.

131. Kredit tavakkalchiliklarini mustaqil baholash maqsadida vakolatli tarkibiy bo‘linma xodimi tomonidan anketa Risk menejmenti departamentiga yuboriladi.

132. Risk menejmenti departamenti qarz oluvchi va loyiha xatarlarini, moliyaviy risklarni, kredit qaytmaslik xatarini, qarz oluvchi va unga aloqador bo‘lgan korxonalarining kredit miqdori bank tavakkalchilik talablariga ta’sirini Bank ichki qoidalariga muvofiq o‘rganib chiqib, kredit tavakkalchiliklarini mustaqil baholaydi hamda xulosa tayyorlaydi. Tegishli xulosa anketaga birlashtiriladi va vakolatli tarkibiy bo‘linma xodimiga yuboriladi.

Mustaqil baholash natijalariga ko‘ra Risk menejment departamenti tomonidan salbiy xulosa rasmiylashtirilgan va veto qo‘llash huquqi amalga oshirilgan hollarda, mazkur masalani ko‘rib chiqish Bankning tegishli ichki qoidasi bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

133. Kredit bitimining dastlabki shartlariga o‘zgartirish kiritish masalasini ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish maqsadida anketa vakolatli tarkibiy bo‘linma tomonidan kredit qo‘mitasi kotibiga yuboriladi.

Kredit qarorini qabul qilish qoidalari “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida Kredit qo‘mitasi va Muammoli qarzdorliklar bilan ishlash qo‘mitasi hamda Anderrayterlar guruhi to‘g‘risida”gi nizom bilan tartibga solinadi.

134. Restrukturizatsiyaga oid masalalarini ko‘rib chiqishda Birinchi himoya chizig‘i tomonidan qonunchilik hujjatlari, Markaziy bank hujjatlari va Bank ichki qoidalari (standartlari) talablariga rioya etilganligi masalasida Ikkinchi himoya chizig‘i (risk-menejment) bilan kelishilishi talab etiladi.

135. Kredit bitimi qarzdorliklarini boshqa shaxsga o‘tkazish va kreditorni talab qilish huquqlarini o‘tkazish masalalari mazkur Tartibda ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

15-bob. Kreditning dastlabki shartlariga o'zgartirish kiritish

136. Vakolatli organ tomonidan kreditning dastlabki shartlariga o'zgartirish kiritish yuzasidan ijobiy qaror qabul qilingandan so'ng mazkur Tartibning 10-bobida belgilangan ketma-ketlikda amaliyotlar amalga oshiriladi.

Kreditning dastlabki shartlariga o'zgartirish kiritish yuzasidan vakolatli organ qarorining ijrosi Bank tarmog'i/Korporativ markaz/O'rta biznes markazi tomonidan amalga oshiriladi. Kreditning dastlabki shartlariga o'zgartirishlar kiritish yuzasidan vakolatli organ qarorining ijrosini nazorat qilish va/yoki tekshirish Operatsion departament yoki Kredit monitoringi va nazorati departamenti tomonidan ta'minlanadi.

137. Kreditning dastlabki shartlariga quyidagi holatlar bo'yicha o'zgartirishlar kiritilganda, vakolatli organ qarorining ijrosini nazorat qilish va/yoki tekshirish Operatsion departamentning mas'ul xodimi tomonidan ta'minlanadi:

kredit qarzdorligini boshqa shaxsga o'tkazish;

kredit valyutasini o'zgartirish (*bunda kredit valyutasini o'zgartirish bilan birgalikda ta'minot, kredit muddatini o'zgartirish va boshqa qo'shimcha shartlar bilan kiritilgan o'zgartirishlar yangi anketa shakllantirish orqali amalga oshirish*

bundan mustasno);

kredit mablag'lari transhlar asosida ajratilishi belgilangan hollarda ushbu transh shartlariga o'zgartirish kiritish orqali yangi anketa shakllantirgan holda kreditning qolgan transhlarini ajratish. Bunda kredit shartnoma va ta'minot hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlarni to'g'ri rasmiylashtirilganligi va/yoki qo'shimcha shartlarning bajarilishi Operatsion departament tomonidan tekshirilishi shart.

Qolgan holatlarda kreditning dastlabki shartlariga (*kredit ta'minoti tarkibini o'zgartirish, kredit foiz stavkasini pasaytirishi, kredit maqsadini o'zgartirish, kredit summasini kamaytirish, investitsion kreditlarda import shartnomani o'zgartirish, kreditlash amaliyotlarini ko'rsatish bo'yicha vakolatli kollegial organ qarorida ko'rsatilgan boshqa shartlarni, jumladan qo'shimcha shartlarni o'zgartirish, kreditning qaytarish jadvalini o'zgartirish, foizlarning kapitalizatsiya qilinishi*) o'zgartirish kiritilishida, vakolatli organ qarorining ijrosini nazorat qilish va/yoki tekshirish Kredit monitoringi va nazorati departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

Korporativ markaz/O'rta biznes markazi/Bank tarmoqlarining mas'ul xodimlari kredit shartnomasi va ta'minot hujjatlarini amaldagi qonunchilik va Bank ichki qoidalari talablari asosida rasmiylashtirish va Operatsion departament/Kredit monitoringi va nazorati departamentga taqdim etishga mas'ul hisoblanadi.

138. Kreditning dastlabki shartlariga o'zgartirish kiritish amaliyotlari Kredit monitoringi va nazorati departamenti tomonidan tekshirilishida Bank tarmoqlarida mazkur Tartibning 10-bobda keltirilgan mijoz bilan ishlovchi menejerning vazifalari hududlardagi kredit monitoringi va nazorati guruhi xodimlari (Korporativ markaz/O'rta biznes markazi bo'yicha ushbu Markazlarning mas'ul xodimlari) tomonidan amalga oshiriladi.

139. Maqsadli moliyaviy resurs hisobidan ajratilgan kreditlarning to'lov jadvaliga o'zgartirish kiritilgandan so'ng Bank tarmog'i/O'rta biznes markazi/Korporativ markaz tomonidan "Dragle BI" tizimiga o'zgartirish yuzasidan Aktiv va passiv xizmatiga xizmat yozishmasi taqdim etiladi. Aktiv va passiv xizmat tomonidan xizmat yozishmasi asosida "Dragle BI" tizimiga tegishli o'zgartirish amalga oshiriladi.

140. Maqsadli moliyaviy resurs hisobidan ajratilgan kreditning moliyalashtirish manbasiga o'zgartirish kiritilgandan so'ng kredit shartini qayta ko'rish menejeri (yoki Bank tarmoqlarida mijoz bilan ishlovchi menejer) tomonidan "Dragle BI" tizimiga anketa kiritiladi hamda Aktiv va passiv xizmat tomonidan tegishli o'zgartirish amalga oshiriladi.